

**Oriental Journal of Philology****ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**PRAGMATIC ANALYSIS OF SPEECH ETIQUETTE UNITS AND STAGES OF THEIR DEVELOPMENT****Muhammad G. Shomurzayev**

Doctoral candidate in the field of  
Asian and African Languages and Literature  
Department of Arabic Studies  
Tashkent State University of Oriental Studies  
[shomurzayevmuhammad@gmail.com](mailto:shomurzayevmuhammad@gmail.com)  
Tashkent, Uzbekistan

**ABOUT ARTICLE**

**Key words:** speech etiquette, sociolinguistics, pragmalinguistics, Arabic language, communication.

**Received:** 08.05.26

**Accepted:** 09.05.26

**Published:** 10.05.26

**Abstract:** This article analyzes the theoretical foundations, historical genesis, and linguopragmatic features of speech etiquette. It is examined as an important sociolinguistic phenomenon regulating social interactions. The study provides a comparative overview of Western, Russian, and Arabic approaches. Special attention is given to the development and modern functions of Arabic speech etiquette.

**NUTQIY ETIKET BIRLIKLARINING PRAGMATIK TAHLILI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI****Muhammad G. Shomurzayev**

Osiya va Afrika xalqlari tillari va adabiyoti  
yo`nalishi tayanch doktoranti  
Arabshunoslik oliy maktabi  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
[shomurzayevmuhammad@gmail.com](mailto:shomurzayevmuhammad@gmail.com)  
Toshkent, O'zbekiston

**MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so'zlar:** nutqiy etiket, sotsiolingvistika, pragmalingvistika, arab tili, kommunikatsiya.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nutqiy etiketning nazariy asoslari, tarixiy genezisi va lingvopragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda u ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim sotsiolingvistik hodisa sifatida yoritiladi. G'arb, rus va arab tilshunosligi doirasidagi yondashuvlar qiyosiy tarzda ko'rib chiqiladi. Shuningdek, arab

nutqiy etiketining shakllanishi va zamonaviy funksiyalari izohlanadi.

## ПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЕДИНИЦ РЕЧЕВОГО ЭТИКЕТА И ЭТАПЫ ИХ РАЗВИТИЯ

*Мухаммад Г. Шомурзаев*

*Докторант направления «Языки и литература народов Азии и Африки»*

*Высшая школа арабистики*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

[shomurzayevmuhammad@gmail.com](mailto:shomurzayevmuhammad@gmail.com)

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** речевой этикет, социолингвистика, прагмалингвистика, арабский язык, коммуникация.

**Аннотация:** В статье анализируются теоретические основы, исторический генезис и лингвопрагматические особенности речевого этикета. Речевой этикет рассматривается как важное социолингвистическое явление, регулирующее социальные отношения. Проводится сравнительный анализ западных, русских и арабских научных подходов. Особое внимание уделяется формированию и современным функциям арабского речевого этикета.

**Kirish.** Ma'lumki, nutqiy etiket insonlar o'rtasidagi muloqotni tartibga soluvchi muhim ijtimoiy va lisoniy vosita sifatida insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida mavjud bo'lib kelgan. U nafaqat odob-axloq qoidalari majmuyi, balki jamiyatdagi ijtimoiy maqom, madaniy me'yorlar va kommunikativ strategiyalarni ifodalovchi murakkab sotsiolingvistik tizim hisoblanadi. Ayniqsa, arab nutqiy etiketining shakllanishi islomgacha bo'lgan davrdan boshlanib, islom madaniyati ta'sirida takomillashib, zamonaviy arab tilida ham o'zining funksional ahamiyatini saqlab qolmoqda. Shu jihatdan mazkur tizimni tarixiy va lingvopragmatik nuqtai nazardan o'rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy tilshunoslikda nutqiy etiket masalasiga bo'lgan qiziqish ortib borayotgan bo'lsa-da, arab nutqiy etiketining genezisi, semantik xususiyatlari va pragmatik funksiyalari yetarli darajada tizimli tadqiq etilmagan. Ko'plab ilmiy ishlar asosan uning madaniy va marosimiy jihatlarini yoritish bilan cheklanib qolgan. Shu bois, ushbu mavzuning dolzarbligi nutqiy etiketni kompleks — tarixiy, sotsiolingvistik va lingvopragmatik yondashuvlar asosida tahlil qilish zarurati bilan izohlanadi. Mazkur tadqiqotda g'arb, rus va arab tilshunosligidagi nazariy qarashlar qiyosiy tahlil qilinib, arab nutqiy etiketining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari ochib beriladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, arab dunyosidagi nutqiy etiket qoidalari ko'p hollarda faqat tor doiradagi maqolalar yoki etnografik tadqiqotlar doirasida cheklanib qolgan. Tadqiqotlarning aksariyati etiketning faqat marosimlar, mehmondo'stlik va o'zaro lutf-karam kabi tashqi (ekstralingvistik) tomonlariga yo'naltirilgan bo'lib, uning sof lingvistik tabiati, semantik xususiyatlari va tarixiy dinamikasi hali ham tizimli tahlilga muhtojdir. Judit Martin tushunchasiga ko'ra: "Etiket – bu insonning barcha ijtimoiy xulq-atvoridir". Jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlarda namoyon bo'ladigan xulq-atvor shakllari tizimida kunda takomillashuv jarayonlari yuz beradi .

G'arb dunyosida etiket vujudga kelishi qadimgi Fransiya "Buyuk Lyudovik" yoki "Quyosh qiroli" nomi bilan tanilgan Burbonlar sulolasidan bo'lib, 1643-yildan 1715-yilda vafotigacha Fransiya va Navarrani boshqargan Lyudovik XIV davriga borib taqaladi. Etiket tushunchasining genezisini tahlili mobaynida uning mazmun-mohiyati turli tarixiy bosqichlarda ijtimoiy ehtiyojlardan kelib chiqib o'zgarganini kuzatish mumkin.

Bugungi kunda etiket tushunchasi o'zaro hurmat va insonparvarlik tamoyillariga tayansa-da, uning shakllanish jarayoni ko'proq iyerarxik nazorat va tabaqalanish ehtiyoji bilan bog'liq bo'lgan .

Zamonaviy etiket normalari, asosan, XVII-XVIII asrlarda Fransiyada "Quyosh qiroli" nomi bilan mashhur bo'lgan Lyudovik XIV saroyida tizimlashtirilgan. O'sha davrda Fransiya Yevropaning madaniy markazi bo'lib, moda, gastronomiya va muloqot madaniyatining andozalarini belgilab bergan. "Etiket" terminining semantik kelib chiqishi bevosita Versal saroyidagi tartib-qoidalar bilan bog'liq. Dastlab "etiketka" (yorliq) tushunchasi saroy bog'laridagi landshaft dizayn ya'ni yashil o'tli joylarni bosmaslik uchun o'rnatilgan ogohlantirish belgilarini anglatgan. Keyinchalik, bu atama Fransiya inqilobidan keyin Angliyaga ham yetib kelib har xil qatlam vakillari orasida savdogarlar va yangi burjuaziya vakillari ya'ni yuqori martabali shaxslarni obro'yini saqlaydigan tizim bo'lib qoldi. O'sha davrda etiket qoidalarini o'rgangan shaxs yuqori martabali vakilga aylanishi uchun etiket "ijtimoiy chipta" vazifasini ham bajargan. Shu bois yosh yigit qizlarga etiket qoidalarini notiqlik, nutq odobi , ijtimoiy muloqot san'ati kabi darslarni o'rgatadigan "odob maktablari" (finishing schools) tashkil etildi.

Nutqiy etiket tushunchasi zamonaviy tilshunoslikda shunchaki odob-axloq qoidalari yig'indisi deb emas , aslida u murakkab sotsiolingvistik va pragmatik hodisa sifatida hisoblanadi. G'arb ilmiy maktablarida etiketning shakllanishi va amal qilishi masalalari sotsiologiya, psixologiya va tilshunoslikning kesishuv nuqtasida bir necha fundamental nazariyalar orqali asoslab berilgan.

Nutqiy etiketning tarixiy genezisiga sotsiologik nuqtayi nazardan yondashgan Norbert Elias o'zining "Sivilizatsiyalashuv jarayoni" (The Civilizing Process) asarida etiketni jamiyatdagi

qudrat va ierarxik muvozanatni saqlash vositasi sifatida baholaydi. Eliasning fikricha, etiket normalari asrlar davomida “tashqi tazyiq”dan (ijtimoiy nazorat) “ichki ehtiyoj”ga (o‘z-o‘zini nazorat qilish) aylanib borgan. Ya’ni, nutqiy cheklovlar va andozalar jamiyatning madaniylashuv darajasini belgilovchi asosiy indikatorga aylangan. Agar Elias etiketga makrosotsiologik tomondan qaragan bo‘lsa, Irvin Goffman uni mikrosotsiologik, ya’ni shaxslararo “yuzma-yuz” muloqot darajasida tahlil qiladi. Goffman nazariyasiga ko‘ra, muloqot bu o‘ziga xos “ijtimoiy ritual” (Interaction Ritual) bo‘lib, unda har bir shaxs o‘zining ijtimoiy “yuzi”ni (Face) saqlab qolishga intiladi. Etiket qoidalarida esa ushbu teatrallashgan muloqot jarayonida shaxsning o‘z mavqeini himoya qilish va suhbatdoshning hurmatini joyiga qo‘yish uchun xizmat qiladigan "sahna ko‘rsatmalari" vazifasini o‘taydi. Goffmanning “yuz” tushunchasini tilshunoslikka muvaffaqiyatli tatbiq etgan olimlar Penelopa Braun va Stiven Levinson hisoblanadi. Ularning “Xushmuomalalik nazariyasi” (Politeness Theory) bugungi kunda nutqiy etiketning eng nufuzli modeli sanaladi. Olimlar etiketni ikki turga ajratadilar:

Ijobiy etiket (Positive Politeness): Suhbatdosh bilan yaqinlikni, hamfikrlikni va uning ijtimoiy obrazini ma’qullashni ifodalovchi nutqiy strategiyalar.

Salbiy etiket (Negative Politeness): Suhbatdoshning shaxsiy hududiga daxl qilmaslik, unga yuklama (tazyiq) bermaslik va masofani saqlashga qaratilgan ehtiyotkorona nutq shakllari. Nutqiy etiketning lingvopragmatik jihatlarini tizimlashtirgan Jefri Lich o‘zining “Xushmuomalalik tamoyillari” (Politeness Principle) orqali muloqotni samarali tashkil etishning oltita asosiy qoidasini (maksimasini) taklif etadi. Bular — saxiylik, xushmuomalalik, ma’qullash, kamtarlik, kelishuv va hamdardlik maksimlaridir. Lich yondashuvining o‘ziga xosligi shundaki, u etiketni shunchaki bezak emas, balki nutqiy aktning maqsadiga erishishini ta’minlovchi va nizolarni bartaraf etuvchi pragmatik vosita sifatida tahlil qiladi. G‘arb tilshunosligi va sotsiologiyasidagi ushbu qarashlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, nutqiy etiket tarixi - bu insoniyatning ijtimoiy nizolarni nutqiy andozalar orqali yumshatishga bo‘lgan intilish tarixi bilan chambarchas bog‘liqdir. N. Elias etiketning tarixiy poydevorini, I. Goffman uning ritual tabiatini, Braun va Levinson uning psixolingvistik strategiyalarini, J. Lich esa uning pragmatik qoidalarini asoslab berdi. Ushbu nazariyalar nutqiy etiketning nafaqat g‘arb madaniyatida, balki sharq, xususan, arab nutqiy etiketi tizimini qiyosiy tadqiq etishda ham metodologik tayanch vazifasini o‘taydi. Zero, har qanday til muhitida “yuzni saqlash” (face-work) yoki “xushmuomalalik maksimlari” mavjud bo‘lib, ular faqatgina milliy-madaniy bo‘yoqlari bilan bir-biridan farqlanadi. Rus nutq odobi Yevropanikiga qaraganda ancha kechroq shakllana boshlagan sababi uning asosida Fransiyaning xulq-atvor tamoyillari mavjudligida.

E. Sepirning “Lingvistikaning fan sifatidagi maqomi” nomli maqolasida madaniyat va til o‘rtasidagi uzviy va fundamental bog‘liqlik alohida ta’kidlanadi: “Muayyan ma’noda har qanday

sivilizatsiyaning madaniy stereotiplar tizimi o'sha sivilizatsiyani ifodalovchi til yordamida tartibga solinadi". Ushbu tamoyillar keyinchalik har xil turdagi kommunikativ muloqotlarda nutqiy jarayonni faollashtiradigan tamoyil bo'ldi. Bu jarayonlar keyinchalik etiket tushunchasini kelib chiqishga sabab bo'ldi. Chunki xalqlar miqyosida oladigan bo'lsak, bir xalq bir madaniyatda qabul qilingan muayyan odob axloq ya'ni biz aytayotgan etiket qoidalari boshqa bir xalq madaniyatida o'zining teskari aksini topishi mumkin. Masalan rus va g'arb madaniyatida "chap qo'l" masalasi uncha muhim emas ya'ni biror bir narsani chap qo'l yoki o'ng qo'lida uzatishning farqi yo'q lekin arab madaniyatida chap qo'lida taom yoki sovg'ani boshqa bir kishiga uzatish hurmatsizlik hisoblanadi va xossatan yoshi va yuqori lavozimli shaxsga nisbatan. Bundan ko'rinadiki tilshunoslikda etiket masalasi g'oyat muhimdir.

Etiket so'zining o'zi fransuzcha kelib chiqishga ega va "yorliq", "belgi" (label) ma'nolarini anglatadi. V.G. Kostomarov o'zining "Russkiy rechevoy etiket" nomli maqolasida ilk bor rus tilshunosligida etiket tushunchani ilmiy muomalaga kiritgan shaxs hisoblanadi. "Nutqiy etiket masalalari rus tilshunosligida tizimli ravishda tadqiq etilgan. Xususan, N.I. Formanovskaya uni muloqotni tartibga soluvchi tayyor nutqiy formulalar tizimi deb hisoblasa, V.G. Kostomarov bu tushunchani milliy madaniyat bilan uzviy bog'liqlikda o'rganadi. Shuningdek, V.E. Goldin nutqiy etiketning ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashtiruvchi funksiyasiga alohida to'xtalib o'tgan." Bundan ko'rinadiki rus tilshunosligida nutqiy etiket haqida bunday yondashuviga asosiy sabab — rus tilshunosligida "Pragmalingvistika" (tilning vaziyatga qarab ishlatilishi) va "Sotsiolingvistika" (til va jamiyat aloqasi) yo'nalishlarining kuchli rivojlanganidir. Nutqiy etiketning bu boradagi ya'ni amaliy qo'llanilishiga oida bo'lgan eng mashhur asarlardan biri bu "Формановская Н.И. Речевое взаимодействие: прагматика и этикет". asaridir. Muallif o'zining tadqiqotida nutqiy etiketni shunchaki odob qoidalari emas, balki muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi "pragmatik hamkorlik"ning muhim sharti sifatida talqin etadi. Uning fikricha, etiket vositalari muloqotning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi asosiy lisoniy vositadir. G.S. Kalinina o'zining 2022-yilda Qozonda e'lon qilingan tadqiqotida turli tizimli tillardagi nutqiy etiket birliklarini qiyosiy va tipologik jihatdan tahlil qiladi. Tadqiqotchi etiket shakllarining pragmatik funksiyalari ya'ni amaliy jihatlarini turli xil lingvistik tizimlarda turlicha namoyon bo'lishini ilmiy asoslab berdi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, nutqiy etiket jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim lisoniy va sotsiolingvistik tizimdir. Uning shakllanishi tarixiy, madaniy va ijtimoiy omillar bilan uzviy bog'liq bo'lib, turli ilmiy maktablarda turlicha talqin etiladi. G'arb, rus va arab tilshunosligi doirasidagi yondashuvlar nutqiy etiketning universal va milliy xususiyatlarini ochib beradi. Arab nutqiy etiketini lingvopragmatik jihatdan chuqur o'rganish esa zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Elias, N. (2000). The civilizing process. Oxford: Blackwell.
2. Goffman, E. (1967). Interaction ritual: Essays on face-to-face behavior. New York: Anchor Books.
3. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). Politeness: Some universals in language usage. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Leech, G. N. (2014). The pragmatics of politeness. Oxford: Oxford University Press.
5. Sapir, E. (1921). Language: An introduction to the study of speech. New York: Harcourt, Brace & Company.
6. Формановская, Н. И. (1989). Речевое взаимодействие: прагматика и этикет. Москва: Наука.
7. Костомаров, В. Г. (1973). Русский речевой этикет как предмет лингвистического исследования. Вопросы языкознания, (2), 56–65.
8. Гольдин, В. Е. (1983). Речевой этикет и культура общения. Саратов: Издательство Саратовского университета.
9. Калинина, Г. С. (2022). Типологические особенности речевого этикета в разносистемных языках. Казань: Казанский федеральный университет.
10. Martin, J. (1996). Miss Manners' guide to excruciatingly correct behavior. New York: Crown Publishers.